INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA ANTONIM SO‘ZLARNING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI.

Nodira Sabirova
O'zMU dotsenti, filologiya fanlari doktori (DSc)
Gulchehra Ziyodilloyeva
O'zMU 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida antonim so‘zlarining leksik-semantik xususiyatlari va stilistik funksiyalari chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot antonimlarning tilning ekspressiv vositasi sifatida matn mazmunini boyitish, badiiy obrazlarni kuchaytirish va kommunikativ ta’sir kuchini oshirishdagi roliga qaratilgan. Ushbu birliklarning ikki tildagi qo‘llanilish xususiyatlari solishtirma tahlil asosida ko‘rib chiqilib, ularning tilshunoslik va adabiyotshunoslikdagi o‘rni aniqlanadi.

Kalit so'zlar. Antonim so‘zlar, stilistik vosita, semantik munosabat, leksik ma’no, obrazlilik, nutq uslubi.

Аннотация. Статья посвящена детальному анализу лексико-семантических характеристик и стилистических функций антонимов в английском и узбекском языках. В исследовании акцентируется внимание на роли антонимов как экспрессивного средства языка, способствующего обогащению содержания текста, усилению художественной образности и повышению коммуникативной эффективности. Применение антонимических единиц в обоих языках рассматривается на основе сопоставительного анализа, а также определяется их значимость в лингвистике и литературоведении.

Ключевые слова. Антонимические слова, стилистическое средство, семантическая связь, лексическое значение, образность, речевой стиль.

Annotation. This article presents a detailed analysis of the lexical-semantic properties and stylistic functions of antonyms in the English and Uzbek languages. The research focuses on the role of antonyms as an expressive means of language, contributing to the enrichment of textual content, the enhancement of artistic imagery, and the intensification of communicative effectiveness. The study offers a comparative analysis of the application of antonyms in both languages and identifies their significance within the fields of linguistics and literary studies.

Keywords. Antonym words, stylistic device, semantic relation, lexical meaning, imagery, speech style.

Kirish

Til — inson taffakurining ko‘zgusi hisoblanadi. Tilda qo‘llanilgan zidliklar, qarama-qarshiliklar ko‘p hollarda ta’sirchanlik va obraz kuchini oshiradi. Tilimizda qo‘llanilgan bir-birga qarama-qarshishi va zid ma’noda qo‘llangan so‘zlar fanda

ISSN 3030-3907

antonimlar deyiladi. Antonimlar ma’no ko‘chish turlaridan biri bo’lib, gap tarkibida yoki nutq jarayonida qo‘llanilganda uning bo‘yoqdirligini oshirishda ta’sir ko’rsatadi. Antonim so‘zlar o‘zbek va ingliz tillarida ham keng ko‘lamda qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek tilida *katta-kichik, oq-qora, baland-past, keng-tor* va boshqa birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida *big-small, white-black, true-false* so‘zlari yaqqol misol bo‘la oladi. Mazkur so‘zlar o‘zaro aks ma’noni bildirishiga ko‘ra antonimlar sanalsada, tilimizda shunday so‘zlar borki ularning ma’nosi bir-biriga zid, inkor ma’noni anglatishiga qaramasdan antonimiya hodisasini hosil qilmaydi. Mazkur fikrga misol tariqasida *keldi-kelmadi, yozdi-yozmadi* so‘zlarini keltirishimiz mumkin. Ularning antonimik munosabatga mos kelmasligi *-ma* bo‘lishsizlik shakli qo‘shimchasining qo‘shilishi orqali inkor ma’nosini ifodalashidir.

Tilshunoslikda antonimlarning qo‘llanilishi ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlarida kuzatiladi va ular tildagi qarama-qarshilik munosabatlarini izohlash orqali antonimlarning semantik tizimdagi o‘rnini yoritishgan. Xususan, rus, ingliz va o‘zbek tilshunoslari bu borada samarali ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Rus tilshunos olimi V.V.Vinogradov antonimiyani ma’no va tilning dialektik qarama-qarshilik qonuniga asoslangan hodisa sifatida ta’riflaydi. Uning fikriga ko‘ra, antonimlar so‘z ma’nolarining qarama-qarshi tomonlarini ochib beradi va fikrni aniqlik, obrazlilik va kuch bilan boyitadi. V.V.Vinogradov o‘z ishlarida *hayot* va *o‘lim* juftligini antonimiya uchun klassik misol sifatida ko‘rsatadi. Bu so‘zlar faqat til darajasida emas, balki jamiyat va tabiatdagi eng asosiy ziddiyatni — yashash va yo‘qolish holatini ifodalaydi. Yani, *hayot* va *o‘lim* o‘rtasidagi kurash insoniyat tafakkurining eng qadimiy va eng muhim ziddiyatlaridan biridir. Mazkur jumla tarkibida kelgan *hayot* va *o’lim* so’zlarni orqali antonimik hodisani hosil qilingan. V.V.Vinogradov antonimlarni tildagi obrazlilik, hissiy ifoda kuchi va tafakkurning aniqroq ko‘rinishi sifatida talqin etadi. Bundan tashqari, antonimik birliklarni badiiy adabiyotda qo‘llanishi asar o‘quvchisining diqqatini jamlashga va asarlarni qiziqish bilan o‘qilishiga hissa qo‘shadi.

Rus tilshunosi E.D.Polivanov antonimlarni tildagi semantika kategoriyasining ajralmas qismi sifatida ta’riflaydi. U antonimlar sinonimiya va polisemiyaga o‘xshab, leksik maydonlar o‘rasida o‘zaro munosabatni ta’minlovchi faol elementlar ekanligini ta’kidlaydi. Olimlarning ilmiy qarashlari antonimlarning nafaqat leksik, balki semantik jihatdan ham muhim ahamiyatga egaligini anglatib, antonimik birliklarning ma’nolari bir biriga propartsional ekanligini bildiradi. *Oq - qora* birliklarini misol tariqasida keltirsak, bu birlik faqat rang ma’nosida emas balki, inson xulqi, voqealar rivojining qarama-qarshi xususiyatini ifodalaydi. Antonimlarning jumlada noto‘g‘ri qo‘llanilishi uning tarkibida leksik xatolikni

ISSN 3030-3907

yuzaga keltiradi. Bugungi kunda “O‘zbek tili antonimlarning izohli lug‘ati” orqali antonimik birliklarning leksik- semantik ma’nolarini to‘g‘ri tushinishimiz va to‘g‘ri ma’noda qo‘llay olishimiz mumkin.

Ingliz tili ham bir biriga zid bo‘lgan so‘zlarga boy bo‘lib, unda antonimiyaning mantiqiy va semantik xususiyatlari alohida o‘rganilgan. J.Lich antonimlarning semantik jihatini o‘rgangan va ularni “ma’nolar oralig‘idagi aniqlikni ta’minlovchi vosita” deb atagan.

Mashhur ingliz tilshunosi J.Layonz antonimlarni semantik tizimning strukturaviy elementi sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, antonimlar ikki asosiy turga bo‘linadi: *gradual antonimiya* va *komplementar antonimiya*. J.Layonz misol sifatida, *cold-warm-hot* kabi gradual antonimlar va *dead-alive* kabi komplementar antonimlarni keltiradi. U antonimlar orqali tilda mantiqiy tafakkur va semantik qiyoslash xususiyatining kuzatilishini ta’kidlaydi. *Hot – warm – cool – cold* gradual antonimlari so‘zlarning eng kuchli ma’nosidan, eng kuchsiz ma’nosi orasidagi jihatni tavsiflaydi. *Dead – alive, true – false* komplementar antonimlari badiiy adabiyotda qo’llanilib asarda ifodalangan syujet va motivlarning qiziqarli tasvirlanishiga hissa qo‘shadi.

Leksik jihatdan antonimlar so‘z boyligini tashkil qiluvchi asosiy birliklardan biri bo‘lib, ular sinonimlar bilan bir qatorda tildagi semantik maydonni shakllantiradi. Antonim so‘zlar ko‘pincha bir xil grammatik toifaga mansub bo‘ladi: *sifat – sifat, fe’l – fe’l, ot – ot* shaklida namoyon bo’ladi. Misol tariqasida, *big- small (adj), win- lose (verb), friend-enemy (noun)* shaklida qo’llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tillarida antonim so‘zlarning semantik va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish natijasida leksik-semantik tizimning ajralmas qismiligi kuzatilib, tilning mantiqiy, obrazli va hissiy imkoniyatlarini kengaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Antonimlar semantik jihatdan qarama-qarshi tushunchalarni ifodalab, so‘zlar orasidagi ma’no chegaralarini belgilashda xizmat qiladi. Ular stilistik jihatdan tildagi ifoda kuchini oshiruvchi vosita sifatida nutqga obrazlilik, bo‘yoqdorlik va emotsional ta’sirchanlikni qo‘shadi.

O‘zbek tilida *katta–kichik, oq–qora, do‘st–dushman* kabi antonimlar xalq og‘zaki ijodi va badiiy adabiyotda keng qo‘llanilib, o‘ziga xos milliy tafakkurni ifodalasa, ingliz tilida esa *big–small, true–false, love–hate* kabi antonimlar orqali mantiqiy tahlil va semantik qiyoslash faol amalga oshiriladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, antonimlar ikki tilda ham nafaqat ma’no qarama-qarshiligini ifodalovchi leksik birliklar, balki tilning stilistik boyligini ta’minlovchi kuchli vosita sifatida ham xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy matnlarda antonimlar vositasida qarama-qarshi obrazlar yaratiladi, dramatik kuchaytirishlar yuzaga keladi va o‘quvchining e’tibori jalb qilinadi. Shuningdek, antonimlarning mantiqiy va stilistik

ISSN 3030-3907

xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ikki tildagi til tafakkurini, madaniy qadriyatlar va ifoda uslublarini solishtirishda ham muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, ingliz va o‘zbek tillarida antonimlarning semantik va stilistik xususiyatlarini chuqur o‘rganish lingvistik tadqiqotlar doirasida katta ahamiyat kasb etadi va bu yo‘nalishdagi izlanishlar kelajakda tilshunoslik fanining yanada boyishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yuldashev M. Leksikologiya: O‘zbek tilining leksik tizimi. —Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006.—70-84 b.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 5 jildlik. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. —34-56-89 b.
3. Oxford English Dictionary. Oxford: Oxford University Press, 1991.— 30-235-467 p.
4. Виноградов В. В. Основные типы лексических значений слова. — Москва: Наука. 1972 — 110 p.
5. Поливанов Э Д. Введение в языкознание. — М.: Государственное издательство, 1928. — 200 с.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006-2008.
7. Lyons J. Semantics (Vol. 1–2). – Cambridge: Cambridge University Press, 1997. —240 p.
8. Leech G. Semantics: The Study of Meaning. – Harmondsworth: Penguin Books, 1981. — 137 p.

ISSN 3030-3907